

KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB ETISH MEXANIZMLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Mustaqil izlanuvchisi

Email: shamsiddinbolliyev@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Maqolada kichik biznes sohasiga investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Investitsion faollikka ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, investitsiya jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion muhit, moliyalashtirish, tadbirkorlik, davlat qo'llab-quvvatlashi.

АННОТАЦИЯ.

В статье рассматриваются научно-теоретические основы механизмов привлечения инвестиций в сектор малого бизнеса. Анализируются факторы, влияющие на инвестиционную активность, и разрабатываются научно-практические рекомендации по совершенствованию инвестиционных процессов.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционный климат, финансирование, предпринимательство, государственная поддержка

ABSTRACT.

The article covers the scientific and theoretical foundations of mechanisms for attracting investments in the small business sector. Factors influencing investment activity are analyzed, and scientific and practical recommendations for improving investment processes are developed.

Keywords: investment, investment climate, financing, entrepreneurship, state support

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning barqaror rivojlanishi unga yo'naltiriladigan investitsiyalar hajmi, sifati va uzluksizligiga bevosita bog'liq. Kichik biznes subyektlarining o'z mablag'lari va kredit resurslari cheklanganligi sababli ular tashqi moliyalashtirish manbalariga, ayniqsa investitsiyalarga ehtiyoj sezadi. Shu bois sohaga investitsiyalarni jalb etishning samarali mexanizmlarini shakllantirish iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalarni jalb etish mexanizmi investorlarni rag'batlantirish, moliyaviy resurslarni safarbar etish va ularni kichik biznes subyektlariga samarali yo'naltirishga xizmat qiluvchi usullar, vositalar hamda institutsional mexanizmlar majmuasidir. Ushbu mexanizm moliyaviy-kredit, soliq, institutsional va bozor instrumentlarini o'z ichiga oluvchi yaxlit tizim bo'lib, uning samaradorligi mamlakatning investitsion jozibadorligi hamda kichik biznesning raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmining mohiyatini chuqur anglash uchun uning tarkibiy elementlarini va ishlash tamoyillarini ko'rib chiqish lozim. Har qanday investitsiya mexanizmi, odatda, subyektlar (investorlar, davlat, moliya institutlari, tadbirkorlik subyektlari), obyektlar (investitsiya loyihalari va korxonalar), vositalar (kredit, subsidiya, kafolat, soliq imtiyoz) hamda ularni boshqaruvchi me'yoriy-huquqiy va institutsional muhitdan iborat bo'ladi.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmining samarali faoliyat yuritishi bir qator muhim tamoyillarga asoslanadi. Jumladan, me'yoriy-huquqiy bazaning barqarorligi va shaffofligi, investorlar huquqlarining ishonchli himoya qilinishi, soliq hamda kredit siyosatining barqaror va prognoz qilinadigan bo'lishi, davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlashning maqsadli yo'naltirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, investitsion risklarni davlat va xususiy sektor o'rtasida oqilona taqsimlash ham mexanizm samaradorligini ta'minlovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarining ilmiy-nazariy asoslari iqtisodiy ta'limotlar tarixida bosqichma-bosqich shakllangan. Jon Maynard Keyns investitsiyalarni iqtisodiy o'sish va bandlik darajasini belgilovchi asosiy omil deb

hisoblab, investitsiya va daromad o'rtasidagi bog'liqlikni "multiplikator" nazariyasi orqali asoslab bergan. Pol Samuelson investitsiyani kapital zaxirasini ko'paytirishga yo'naltirilgan xarajat sifatida ta'riflab, uning iqtisodiy o'sishga ta'sirini ko'rsatgan. Moliyalashtirish mexanizmlari nazariyasini rivojlantirgan Garri Markovits diversifikatsiya orqali investitsion riskni kamaytirishga asoslangan portfel nazariyasini ishlab chiqqan, Franko Modilyani va Merton Miller esa korxona kapital tuzilmasi hamda moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi bog'liqlikni asoslab berishgan. Uilyam Sharp daromadlilik va risk muvozanatiga asoslangan investitsion qaror qabul qilish modelini taqdim etdi. Kichik biznesni moliyalashtirish nazariyasi uchun, ayniqsa, Jozef Stiglitz va Endryu Vayssning axborot assimetriyasi va kredit ratsioni bo'yicha tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega: ular to'liq bo'lmagan axborot sharoitida banklar foiz stavkasini emas, balki kredit hajmini cheklashini, natijada kichik korxonalar kreditga teng kirish imkoniyatidan mahrum bo'lishini isbotlab berishdi. Yozef Shumpeter innovatsiyalarni kreditlash va moliyalashtirishni iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi deb baholagan bo'lsa, Muhammad Yunus garovsiz mikrokreditlashga asoslangan mikromoliyalashtirish mexanizmini amaliyotga joriy etib, kam ta'minlangan tadbirkorlarni moliyalashtirishning yangi modelini yaratdi. Mahalliy olimlardan B.G'oyibnazarov va H.Rahmonov kichik biznesni mintaqaviy kesimda qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish mexanizmlarini, N. Qo'zieva esa xorijiy investitsiyali korxonalarni rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini ilmiy asoslab berishgan. Ushbu nazariy qarashlar kichik biznesga investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini takomillashtirishning metodologik asosini tashkil etadi.

1-jadval.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari bo'yicha olimlarning asosiy g'oyalari

№	Olim va asari (yili)	Mexanizm/investitsiyaga oid asosiy g'oya
1	Jon M. Keyns. Bandlik, foiz va pul nazariyasi (1936)	Investitsiya – o'sish va bandlikni belgilovchi omil; “multiplikator” mexanizmi orqali daromadni ko'paytiradi.
2	Pol Samuelson. Iqtisodiyot (2010)	Investitsiya – kapital zaxirasini ko'paytiruvchi xarajat; iqtisodiy o'sishga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.
3	Garri Markovits. Portfolio Selection (1952)	Diversifikatsiya orqali investitsion riskni kamaytirishga asoslangan portfel nazariyasi.
4	F. Modilyani, M. Miller (1958)	Korxona kapital tuzilmasi va moliyalashtirish manbalari o'rtasidagi bog'liqlik nazariyasi.
5	Uilyam Sharp. Investments (1999)	Daromadlilik–risk muvozanatiga asoslangan investitsion qaror modeli (CAPM).
6	J. Stiglitz, A. Vayss (1981)	Axborot assimetriyasi sharoitida kredit ratsioni; kichik korxonalarning kreditga kirishi cheklanadi.
7	Yozef Shumpeter. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi (1934)	Innovatsiyalarni kreditlash va moliyalashtirish – rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi.
8	Muhammad Yunus. Banker to the Poor (2003)	Garovsiz mikrokreditlashga asoslangan mikromoliyalashtirish mexanizmi (Grameen modeli).
9	B. G'oyibnazarov, H. Rahmonov (2008)	Mintaqada kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirish mexanizmlari.
10	N. Qo'zieva. Avtoreferat (2017)	Xorijiy investitsiyali korxonalarni rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmi.

№	Olim va asari (yili)	Mexanizm/investitsiyaga oid asosiy g'oya
11	O. Arzikulov. Green Economy and Development (2025)	Kichik biznes samaradorligi va investitsiya ko'rsatkichlarini statistik baholash.

Investitsiyalarni jalb etish mexanizmlarini to'g'ri tashkil etish uchun investitsiyalarning turlari va shakllarini farqlash zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar qo'yilish obyektiga ko'ra real va moliyaviy, egalik darajasiga ko'ra to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar, kelib chiqish manbaiga ko'ra ichki va tashqi, mulkchilik shakliga ko'ra esa davlat, xususiy va xorijiy investitsiyalarga ajratiladi. Kichik biznes uchun, ayniqsa, asosiy kapitalga yo'naltiriladigan real investitsiyalar hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyatga ega, chunki aynan ular ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish va yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi.

Xulosa. Investitsiyalarni jalb etish mexanizmining ilmiy-nazariy mohiyati ochib berildi, u investorlarni jalb qilish, moliyaviy resurslarni safarbar etish va ularni kichik biznes subyektlariga yo'naltirishga qaratilgan usullar, vositalar va institutsional tuzilmalar tizimi sifatida talqin qilindi. Mexanizmlarning moliyaviy, kredit-kafolat, soliq-imtiyoz va institutsional turlari tasniflanib, kichik korxonalar rivojida tashqi moliyalashtirish va davlat qo'llab-quvvatlashining o'rni katta ekanligi ko'rsatildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://president.uz/oz/lists/view/9252>
2. Авдокушин Е.Ф. и др. Новая экономика: монография / Под ред. Е.Ф.Авдокушина, В.С. Сизова. - М.: Магистр. - 2009. - 542 с.;
3. Бурменко Т. Д. Сфера услуг: экономика: учебное пособие / Т.Д. Бурменко, Н.Н. Даниленко, Т. А. Туренко; под ред. Т.Д. Бурменко. - М.: КНОРУС, 2007. – С. 661;

4. Басарева В.Г. Малый бизнес: региональные аспекты механизмов государственного регулирования / В.Г. Басарева // Поиск. Проблемы. Решения. 2010. № 11. С. 55-62;
5. Бачурин А.А. Зарубежный опыт регулирования развития предпринимательской деятельности / Л.Г.Червова, А.А. Бачурин // Вестник Института экономических исследований, 2017. – №3(42) – С. 26-31;
6. Грибовский А.В. Механизмы государственной поддержки малого инновационного бизнеса за рубежом / А.В. Грибовский, С. Е.Ушакова // Наука. Инновации. Образование. – 2014. – №16. – С. 209-210;